



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAXTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC.....	108
Musaeva Shoira Azimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	116
Yuldashev Abduxakim Abdulkarimovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНА.....	122
Анвар Аллабергенов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
Razikov Otabek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
Matkabalova Dilorom Xalilullayevna	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida)	165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich	
Narmetova Dilafruz Azamatovna	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	170
Ахмедова Шахноза Козим кизи	
KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	175
Elbekov Jasur Ergash o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASH.....	181
Sharipova Bibijon Baxtiyorovna	



ВНЕДРЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ СИСТЕМЫ ПАКЕТОВ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО СБОРА ТВЁРДЫХ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ В Г. ТАШКЕНТЕ: АДАПТАЦИЯ КОРЕЙСКОЙ МОДЕЛИ НА УРОВНЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ	189
Джусупов Кубанычбек	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY MEKANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	196
Shamuratov Shahzod Janibek o'g'li	
SHAHARSOZLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI JORIY ETISH	200
Eshov Sherko'zi Asatulloyevich	
THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES	205
Kimsanbaeva Maftuna Bakhodirovna	
DETERMINANTS OF STAKEHOLDER SATISFACTION WITH CUSTOMS CLEARANCE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS	209
Khanifakhon Solikhova	
BANDLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI (Xorazm viloyati misolida).....	213
Z. Sh. Matniyozova	
JIZZAX VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI VAHOLASH VA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI PROGNOZLASH	218
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НИЗКОУГЛЕРОДНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	224
Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович	
KORPORATIV BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK JAVOBGARLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	233
Komilova Guli Bagandik qizi	
THE ROLE OF DIGITAL INFRASTRUCTURE IN PROMOTING GREEN ECONOMIC GROWTH: EVIDENCE FROM CENTRAL ASIAN ECONOMIES.....	238
Eshboyev Mirjalol Baxrom o'g'li	
Ozatbekova Ozodaxon Nodirbek qizi	
ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОЕ ИНТЕРВАЛЬНОЕ ОЦЕНИВАНИЕ СРЕДНЕГО ЗНАЧЕНИЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ, ПРИТЯГИВАЮЩЕГОСЯ К УСТОЙЧИВОМУ РАСПРЕДЕЛЕНИЮ.....	250
Турсунов Гафур Таирович	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI MUSTAQIL AUDITINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: BANK FAOLIYATIGA XOS RISK OMILLARINI TASNIFLASH.....	259
Ibragimov Nodirbek Bahodir o'g'li	
ДЕМОКРАТИК TANLOV VA PROGRESSIV SOLIQQA TORTISHNING BARQARORLIGI	266
Malika Sharipova Maxmudjon qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL ENERGETIKA MANBALARINI UTILIZATSIYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	273
Ibadov Shoxrux Axmatilloevich	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI IQTISODIY FAOLIYATINI PROGNOZLASH: 2030-YILGACHA SSENARIY TAHLILI.....	277
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA MARKETING DASTURINING O'RNI.....	283
Musayeva Shoira Azimovna	
O'ZBEKISTONDA ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	289
Karimberdiyeva Dilrabo Rasulovna	



BANK TAVAKKALCHILIKLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	296
Matkarimova Ayman Jengisbaevna	
O'ZBEKISTONDA AGROSUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY OMILLARI	303
Jo'rayeva Sarvinoz Baxtiyor qizi	
BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	309
Mustafayeva Sevara Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA SHAXSIY SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	314
Qodirova Farangiz Komilovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF TOURISTS' HOTEL SELECTION PREFERENCES IN THE MAJOR TOURISM REGIONS OF UZBEKISTAN.....	320
Sardor Kuvandikov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI	329
Madenova Elmira Nizamatdinovna	
BOSHQARUV SIFATINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	334
Shoyev Davronbek Axmadjonovich	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHI KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA TARMOQNI 2032-YILGACHA RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASH.....	340
Usmonov Mirumar Abdulla o'g'li	
YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJINING DRAYVERI SIFATIDA DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH.....	349
Jannazarova Gauzar Kaipnazarovna	
Raxmatova Sevinch Sobir qizi	
O'ZBEKISTONDA IFRSGA O'TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING BOSHQARUV QARORLARIGA TA'SIRI: UZAUTO MOTORS MISOLIDA.....	353
Samaroxonov Asqarxon Jamolxon o'g'li	
Jo'rayeva Zahro Toshpo'latovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	358
Pyotr Kim	
TOSHKENT VILOYATI BO'STONLIQ TUMANIDA TURISTIK ZONALARNI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIYIQTISODIY AHAMIYATI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA).....	364
Tolibboyev Zafarbek Axror o'g'li	
TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	372
Qarshiboyev Lochinbek Xusan o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ASOSIY VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	379
Muxidinov Ayubbek Nuritdinovich	
QASHQADARYODA NODAVLAT UNIVERSITETLARINING TASHKILIY RIVOJLANISHI: TALABALAR VA XODIMLAR POTENSIALINI TARKIBIY VA DEMOGRAFIK TAHLIL.....	382
Rahimov Sardor Uralovich	



O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING JOYLASHUVINING HOZIRGI HOLATI.....	388
Kudratov Muhammad Rustamovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STATISTIK MA'LUMOTLARNI SUN'YI INTELLEKT ASOSIDA TAHLIL QILISH IMKONIYATLARI.....	393
Umarov Abbas Nuriddin o'g'li	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ УЗБЕКИСТАНА И РОССИИ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ, СТРУКТУРНАЯ ВЗАИМОЗАВИСИМОСТЬ И СЦЕНАРИИ РАЗВИТИЯ.....	400
Муниса Турдибаева	
TURIZM SOHASIDA SIRKULYAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	410
Yuldosheva Laylo Isroilovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	416
Oramov Jahongir Jo'rayevich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MUNOSABATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH.....	421
Ollokulova Feruza Mansurovna	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA YUQORI TEXNOLOGIK USKUNALARNI XARID QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UMUMIY EGALIK QIYMATI (TCO) KONSEPSIYASINING AHAMIYATI.....	428
Dadamuxamedov Abduvaxob Abduvaxidovich	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISH HAMDA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	433
Xalilov Bahromjon Bahodirovich	
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY SUG'URTA MEKANIZMLARINI JORIY ETISH.....	441
Kalenov K.T.	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	445
Sobirov Sayfiddin Baxrom o'g'li	
ADIR EKOTIZIMLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARI TAHLILI.....	455
Qodirov Hamidullo Madaminjonovich	
AQSH VA XITOIY O'RTASIDAGI SAVDO URUSHINING JAHON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI.....	466
Maxmudillayev Bahromjon Shavkatjon o'g'li	
O'ZBEKISTON FERMERLARINING XALQARO BOZORLARGA KIRISHINI KENGAYTIRISHDA EKSPORT KOOPERATSIYALARIDA ISHTIROK ETISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI MARJINAL BAHOLASH.....	472
Tursunqulov G'olibjon Shavkat o'g'li	
TECHNOLOGY AND MODERN TOURISM: PAVING THE WAY FOR A SUSTAINABLE ENVIRONMENT.....	482
Freshta Qayoumi	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA INVESTITSIYA PORTFELINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARI.....	488
Ergashev Olim Kenjayevich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA SEKTORIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	496
Ergashev Olim Kenjayevich	
ВЛИЯНИЕ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИИ РЕСУРСНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ.....	503
T.B. Kim	



TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI AUDITIGA KOMPYUTERLASHTIRILGAN AUDIT USULLARI (CAATS) VA TAHLILY AMALLARNI JORIY ETISH	509
Ibragimov Nodirbek Baxodir o'g'li	
JAMIYAT EVOLYUSIYASIDA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNING AHAMIYATIGA DOIR NAZARIY TALQINLAR.....	516
Aripov Oybek Abdullayevich	
Rustamov Dilshodjon Shaydullo o'g'li	

JAMIYAT EVOLYUSIYASIDA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNING AHAMIYATIGA DOIR NAZARIY TALQINLAR



Aripov Oybek Abdullayevich
Namangan davlat texnika universiteti
Iqtisodiyot kafedrası professorı, iqtisodiyot fanları doktori

Rustamov Dilshodjon Shaydullo o'g'li
Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyat evolyusiyasida barqaror iqtisodiy rivojlanishning ahamiyati va uning asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy adolat va ekologik xavfsizlik tamoyillariga asoslanganligi yoritilgan. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlikning aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, ilm-fan va innovatsiyalar rivojini rag'batlantirish hamda ekologik muvozanatni saqlashdagi o'rni keng tahlil etilgan. Maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, raqamli va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ahamiyati ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari barqaror iqtisodiy rivojlanish jamiyat taraqqiyoti, aholi farovonligi va kelajak avlod manfaatlarini ta'minlashning muhim omili ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: barqaror iqtisodiy rivojlanish, jamiyat evolyusiyasi, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik, innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik, aholi farovonligi, O'zbekiston.

Аннотация. В данной статье проанализированы значение устойчивого экономического развития в эволюции общества и его основные направления. Раскрыто, что устойчивое экономическое развитие основывается на принципах экономической эффективности, социальной справедливости и экологической безопасности. Также подробно рассмотрена роль экономической устойчивости в повышении уровня жизни населения, обеспечении социальной стабильности, стимулировании развития науки и инноваций, а также сохранении экологического баланса. В статье уделено внимание экономическим реформам, проводимым в Узбекистане, и значению мер, направленных на развитие цифровой и зеленой экономики. Результаты исследования показывают, что устойчивое экономическое развитие является важным фактором общественного прогресса, повышения благосостояния населения и обеспечения интересов будущих поколений.

Ключевые слова: устойчивое экономическое развитие, эволюция общества, экономический рост, социальная стабильность, инновации, цифровая экономика, зеленая экономика, экологическая безопасность, благосостояние населения, Узбекистан.

Abstract. This article analyzes the importance of sustainable economic development in the evolution of society and its main directions. It highlights that sustainable economic development is based on the principles of economic efficiency, social justice, and environmental security. The study also examines the role of economic sustainability in improving living standards, ensuring social stability, promoting scientific and innovative development, and maintaining ecological balance. Furthermore, the article discusses the significance of



economic reforms being implemented in Uzbekistan, as well as measures aimed at developing the digital and green economy. The research findings indicate that sustainable economic development is a key factor in social progress, public welfare, and safeguarding the interests of future generations.

Keywords: sustainable economic development, social evolution, economic growth, social stability, innovations, digital economy, green economy, environmental security, public welfare, Uzbekistan.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida davlatlar va jamiyatlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash hisoblanadi. Iqtisodiy taraqqiyot nafaqat moddiy boyliklarni ko'paytirish, balki aholi turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va kelajak avlod uchun munosib hayot sharoitini yaratishga xizmat qiladi. Shu bois barqaror iqtisodiy rivojlanish jamiyat evolyusiyasining muhim va zaruriy sharti sifatida qaraladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jamiyat evolyusiyasi – inson hayotining turli sohalarida bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonidir. Ushbu fikrni iqtisodiy qarashlari bir-biriga zid bo'lgan taniqli iqtisodchilarning, ya'ni A. Smit [7] va Karl Marks [8] asarlarida uchratish mumkin. Iqtisodiy rivojlanish esa ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Tarixga nazar tashlasak, iqtisodiy taraqqiyoti yuqori bo'lgan jamiyatlarda ilm-fan, ta'lim, tibbiyot va madaniyat ham jadal rivojlangan [4, 5, 6].

Barqaror iqtisodiy rivojlanish esa iqtisodiyotning uzluksiz o'sishi bilan birga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan taraqqiyot modelidir. Bu tushuncha ilk bor XX asrning oxirlarida global ekologik muammolar va iqtisodiy tengsizlikning kuchayishi natijasida keng qo'llanila boshlandi [1, 5, 7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:


- iqtisodiy samaradorlik;
- ijtimoiy adolat;
- ekologik xavfsizlik;
- resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish;
- kelajak avlod manfaatlarini hisobga olish.

Ushbu tamoyillar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, barqaror iqtisodiy rivojlanishning mustahkam asosini tashkil etadi. Iqtisodiy samaradorlik milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilsa, ijtimoiy adolat aholi o'rtasida teng imkoniyatlar yaratish va farovonlikni ta'minlashga qaratilgan. Ekologik xavfsizlik esa iqtisodiy faoliyat natijasida atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish tabiiy boyliklarni saqlab qolish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Kelajak avlod manfaatlarini hisobga olish tamoyili esa bugungi iqtisodiy qarorlar uzoq muddatli istiqbolda ham ijobiy natijalar berishi lozimligini anglatadi. Mazkur tamoyillarga amal qilish orqali jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik taraqqiyoti o'rtasida muvozanat ta'minlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror iqtisodiy rivojlanish quyidagi yo'nalishlarda jamiyat evolyusiyasiga ta'sir ko'rsatadi:

Birinchidan, aholi turmush darajasini oshirishda: Barqaror iqtisodiy rivojlanishning eng muhim natijalaridan biri aholi turmush darajasining yuksalishida namoyon bo'ladi. Iqtisodiyotning barqaror o'sishi ishlab chiqarish hajmining ortishi, yangi korxonalarining tashkil etilishi va xizmat ko'rsatish sohalarining kengayishiga olib keladi. Natijada aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratilib, fuqarolarning doimiy daromad manbalari shakllanadi. Daromadlarning ortishi esa insonlarning kundalik ehtiyojlarini to'liqroq qondirish imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning aholi turmush darajasi farovonligiga ta'siri¹

Ayniqsa, ishsizlik darajasining kamayishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat bilan band aholi soni ortishi fuqarolarning iqtisodiy faolligini kuchaytiradi, ularning o'z kelajagiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bu holat nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki butun jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki iqtisodiy jihatdan ta'minlangan insonlar jamiyat hayotida faol ishtirok etadi, tadbirkorlikka intiladi va yangi g'oyalarni amalga oshirishga harakat qiladi.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish ta'lim va sog'liqni saqlash tizimining takomillashuviga ham xizmat qiladi. Davlat byudjetiga tushumlar ko'paygani sari maktablar, oliy ta'lim muassasalari, shifoxonalar va zamonaviy tibbiyot markazlariga ko'proq mablag' ajratiladi. Bu esa aholining sifatli ta'lim olishi va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Sog'lom va bilimli avlod esa mamlakatning intellektual va iqtisodiy salohiyatini oshiradi.

Shuningdek, iqtisodiy taraqqiyot aholining yashash sharoitlarini yaxshilashga ham bevosita ta'sir qiladi. Zamonaviy uy-joylar qurilishi, transport va kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishi, ichimlik suvi va elektr energiyasi bilan ta'minlash darajasining oshishi insonlar hayot sifatini yuksaltiradi. Ayniqsa, qishloq hududlarida infratuzilmaning rivojlanishi shahar va qishloq o'rtasidagi farqni qisqartirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, aholi turmush darajasining o'sishi jamiyatda madaniy va ma'naviy muhitning rivojlanishiga ham turtki beradi. Moddiy jihatdan barqaror hayot kechirayotgan insonlar ilm-fan, san'at, madaniyat va sport sohalariga ko'proq qiziqish bildiradi. Bu esa jamiyatning umumiy intellektual va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlaydi.

Shunday qilib, barqaror iqtisodiy rivojlanish aholi farovonligini oshirish orqali jamiyat evolyusiyasining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. U insonlarning munosib hayot kechirishi, o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarishi va kelajakka ishonch bilan qarashi uchun mustahkam asos yaratadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda: Barqaror iqtisodiyot jamiyatda ijtimoiy tenglik va adolatni mustahkamlaydi. Ishsizlikning kamayishi, aholi farovonligining ortishi turli ijtimoiy muammolarning oldini olishga xizmat qiladi.

Jamiyatda iqtisodiy barqarorlik ta'minlangan sharoitda aholi o'rtasidagi ijtimoiy tafovutlar asta-sekin qisqaradi. Fuqarolarning doimiy ish o'rniga va barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi ularning hayotdan

1 Muallif ishlanmasi.




qoniqish darajasini oshiradi. Bu esa jamiyatda turli ziddiyatlar, ijtimoiy keskinlik va norozilik holatlarining kamayishiga olib keladi. Ayniqsa, yoshlar bandligini ta'minlash ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi.

Barqaror iqtisodiy rivojlanish aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish imkonini ham beradi. Davlat byudjeti daromadlarining ortishi natijasida nafaqalar, ijtimoiy yordam va turli qo'llab-quvvatlash dasturlariga ko'proq mablag' ajratiladi. Bu esa kam ta'minlangan aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga va jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, iqtisodiy barqarorlik jinoyatchilik darajasining kamayishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki ish bilan ta'minlangan va munosib turmush sharoitiga ega insonlar qonunbuzarlik va boshqa salbiy holatlarga kamroq moyil bo'ladi. Natijada jamiyatda tinchlik, xavfsizlik va o'zaro ishonch muhiti shakllanadi.

Uchinchidan, ilm-fan va innovatsiyalar rivojida: Iqtisodiy imkoniyatlar kengaygan sari davlatlar innovatsion texnologiyalarga, raqamli iqtisodiyotga va ilmiy tadqiqotlarga ko'proq sarmoya kiritadi. Bu esa jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi (2-rasm).



2-rasm. Barqaror iqtisodiy rivojlanish va innovatsion taraqqiyot²

Barqaror iqtisodiy rivojlanish sharoitida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik kuchayadi, natijada ilm-fan sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi ortib boradi. Ilmiy tadqiqot markazlari, universitetlar va innovatsion laboratoriyalar zamonaviy uskunalar bilan ta'minlanib, yangi g'oyalar va texnologiyalarni yaratish uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ladi. Bu holat ilm-fanning jamiyat hayotidagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va biotexnologiya kabi sohalarning tez sur'atlarda taraqqiy etishiga olib keladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilaydi va yangi ish o'rinlarini yaratadi. Jamiyatda innovatsion fikrlash madaniyati shakllanadi, yoshlarning ilm-fanga va zamonaviy texnologiyalarga qiziqishi ortadi.

Ilmiy salohiyatning oshishi ta'lim tizimiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy o'qitish usullari joriy etiladi, raqamli platformalardan foydalanish kengayadi. Bu esa bilim olish



jarayonini yanada samarali va qulay qiladi. Natijada yuqori malakali kadrlar tayyorlanadi va ular mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarida muhim rol o'ynaydi.


Bundan tashqari, innovatsiyalar jamiyatda global raqobatbardoshlikni oshiradi. Ilm-fan va texnologiyalardagi yutuqlar mamlakatning xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlaydi, eksport imkoniyatlarini kengaytiradi va investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiladi. Bu esa umumiy iqtisodiy barqarorlikni yanada kuchaytiradi.

Shunday qilib, ilm-fan va innovatsiyalar rivoji barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim natijasi bo'lib, u jamiyatning intellektual, texnologik va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, ekologik muvozanatni saqlashda: Barqaror iqtisodiy rivojlanish tabiatga zarar yetkazmasdan iqtisodiy o'sishni ta'minlashni nazarda tutadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, "yashil iqtisodiyot" va ekologik texnologiyalar kelajak avlod manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasida iqtisodiy o'sish tabiiy resurslarni ortiqcha iste'mol qilish yoki atrof-muhitni ifloslantirish hisobiga emas, balki ekologik me'yorlarga amal qilgan holda amalga oshirilishi lozim. Shu sababli hozirgi kunda ko'plab davlatlar "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etib, sanoat va energetika sohasida ekologik toza texnologiyalarga o'tishni maqsad qilmoqda. Bu esa havo, suv va tuproqning ifloslanishini kamaytirishga xizmat qiladi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jumladan, quyosh, shamol va gidroenergiyadan foydalanish tabiiy resurslarga tushadigan bosimni sezilarli darajada kamaytiradi. Bu nafaqat ekologik muvozanatni saqlashga, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ham yordam beradi. Chunki energiya manbalarining samarali va ekologik toza bo'lishi ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtiradi (3-rasm).



3-rasm. Ekologik muvozanat va barqaror iqtisodiy rivojlanish³

3 Муаллиф ишланмаси.



Shuningdek, ekologik texnologiyalarni joriy etish sanoat chiqindilarini qayta ishlash, resurslarni tejash va tabiatga zararli ta'sirni minimallashtirish imkonini beradi. Zamonaviy korxonalarda ekologik standartlarga amal qilish ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali va xavfsiz qiladi. Bu esa aholi salomatligini himoya qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ekologik muvozanatni saqlash kelajak avlodlar uchun barqaror hayot sharoitini yaratishda asosiy omil hisoblanadi. Tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash va ekologik madaniyatni shakllantirish jamiyatning umumiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, barqaror iqtisodiy rivojlanish ekologiya va iqtisodiyot o'rtasida muvozanatni ta'minlab, tabiatni asrash va jamiyat taraqqiyotini uyg'un holda olib borish imkonini beradi.

Fikrimizcha, O'zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanish masalalari doirasida so'nggi yillarda mamlakatda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va investitsion muhitni yaxshilashga katta e'tibor qaratilmoqda. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini joriy etish va yangi ish o'rinlari yaratish mamlakat taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Shu bilan birga, suv resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni bartaraf etish va energiya samaradorligini oshirish kabi vazifalar ham barqaror rivojlanishning muhim shartlari hisoblanadi.

Biroq, mazkur sohada hal etilishi lozim bo'lgan qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, suv resurslarining cheklanganligi, iqlim o'zgarishi ta'sirining kuchayib borayotgani hamda energiya resurslaridan samarasiz foydalanish holatlari barqaror iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish sur'atlarining yetarli emasligi, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligi va ekologik muammolarning saqlanib qolayotgani ham dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish, resurs tejovchi texnologiyalarni keng joriy qilish, inson kapitalini rivojlantirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarur. Faqat shunday yondashuv orqaligina mamlakatning uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, barqaror iqtisodiy rivojlanish jamiyat evolyusiyasining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. U iqtisodiy o'sish bilan birga ijtimoiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik va inson kapitalining rivojlanishini ta'minlaydi. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti barqaror iqtisodiy siyosat, innovatsiyalar va resurslardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli har bir davlat o'z taraqqiyot strategiyasida barqaror iqtisodiy rivojlanish tamoyillariga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Ijtimoiy barqarorlikning ta'minlanishi mamlakat taraqqiyoti uchun mustahkam asos yaratadi. Tinch va barqaror jamiyatda ta'lim, ilm-fan, tadbirkorlik va madaniyat sohalari samarali rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida jamiyat evolyusiyasining izchil davom etishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PQ-83-son qarori. <https://lex.uz/docs/-5870397>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi «Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-171-son qarori. <https://www.lex.uz/docs/-6479134>
3. Aripov O.A. Kichik biznes va tadbirkorlik. Darslik (lotin yozuvida). – Namangan: "Mashrab" nashriyoti, 2025. – 356 b.
4. Barbier, E. B. (2016). Sustainability and Development. Annual Review of Resource Economics, 8, 261–280. <https://doi.org/10.1146/annurev-resource-100815-095227>
5. Dernbach, J. C., & Cheever, F. (2015). Sustainable Development and Its Discontents. Transnational Environmental Law, 4(2), 247–287. <https://doi.org/10.1017/S2047102515000163>
6. Bárcena, A., Cimoli, M., García-Buchaca, R., Yáñez, L. F., & Pérez, R. (2018). The 2030 Agenda and the Sustainable Development Goals: An Opportunity for Latin America and the Caribbean. United Nations. https://repositorio.cepal.org/bitstream/handle/11362/40156/25/S1801140_en.pdf



7. The Foundational Theories of Development: Insights from Comte, Morgan, Marx, and Spencer. <https://sociology.institute/sociology-of-development/foundational-theories-development-comte-morgan-marx-spencer/>
8. Sociocultural Evolution. https://en.wikipedia.org/wiki/Sociocultural_evolution
9. Yashil iqtisodiyot: Darslik / A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiev va boshqalar. – T.: «Universitet», 2020. – 262 b.
10. Hakimov N.H., Abirqulov Q.N., Islomov A.A. Atrof-muhitni muhofaza qilish. Darslik. – T.: 2007. – 209 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>